
"MAHALLA XOTIN-QIZLAR FAOLLARINING PSIXOLOGIK BILIMLARINI SHAKLLANTIRISH" MAVZUSIDA SEMINAR-TRENING BO'LIB O'TDI

Bugun Toshloq tumanida 51 nafar mahalla xotin-qizlar faollari uchun seminar-trening tashkil etildi. Dastlab, seminarni tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev ochib berdi, seminarda sektor rahbarlari xam ishtirok etib, seminar jarayonini kuzatib bordilar. Mashg'ulotlarni malakali psixolog Feruza Karimova olib bordi.

Unda mahalla xotin-qizlar faollarining psixologik bilimlarini shakllantirish, fuqarolar bilan nizoli vaziyatlarni oldini olish, notinch oilalar bilan ishlash, ruhiy tushkunlikka tushgan shaxslarga ko'maklashish, muloqot madaniyati, zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarga birinchi yordam ko'rsatish hamda o'z joniga qasd qilish tushunchasi va uni oldini olish choralarini ko'rish, ajrimlarni oldini olish kabi mavzularda ma'ruzalar qilindi.

Seminar-trening mashg'ulotida olgan bilimlarini baholash maqsadida test sinovi o'tkazildi, test sinovidan muvoffaqiyatli o'tgan xotin-qizlar faollariga sertifikatlar topshirildi.

2023-07-31 14:06:44